



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-oktabr VII-15-119-7-96-K/25 Kattaqo‘rg‘on tumani

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi
“2025-2030-yillarda bolalar saratoniga qarshi kurashish bo‘yicha
O‘zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini amalga oshirish chora-
tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-186-sonli qarori ijrosi bo‘yicha tumanida
amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-maydagi PQ-186-sonli qarori bilan 2025-2030-yillarda tumanda bolalar saratoniga qarshi kurashishning asosiy maqsadlari belgilangan. Jumladan, bolalar saratonini erta bosqichlarda aniqlash holatlari ulushini 65 foizgacha oshirish, onkologik va onkogematologik kasalliklarga chalingan bolalarning bir yillik yashovchanligini 34 foizdan 90 foizgacha, besh yillik yashovchanligini esa kamida 60 foizgacha oshirish, saraton kasalligiga chalingan bolalarni 100 foiz ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam bilan qamrab olish nazarda tutilgan.

Kattaqo‘rg‘on tumanida saraton (onkologik, onkogematologik) kasalliklarga chalingan bolalarning profilaktikasi, diagnostikasi, kasalliklarni erta aniqlash, davolash va parvarishlash tizimini tashkil etish borasida tumanda 141 ta tibbiyot brigadasi tashkil etilgan va tibbiyot brigadasida faoliyat ko‘rsatuvchi xodimlar saraton kasalliklariga shubhalarni aniqlash uchun maxsus so‘rovnomalar o‘tkazib, tibbiy ko‘riklar tashkil etilmoqda hamda birlamchi skrining o‘tkazish bo‘yicha malakasini oshirish chora tadbirlari ishlab chiqildi va xodimlar malakasi oshirilgan.

Tibbiy ma‘lumotlarni boshqarish jarayonlarini raqamlashtirish, tibbiyot xodimlarini o‘z faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashga o‘qitish jarayoni amalga oshirildi, shuningdek, sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan faol foydalanish hisobiga tashxislash va davolash usullarini takomillashtirish choralari ko‘rib, tumanda saraton kasalligiga chalingan bolalar va ularning

oilalari uchun palliativ yordam va xospis tizimini takomillashtirish hisobiga bemorlarning hayot sifati yaxshilanmoqda.

Tumanda 9 ta oilaviy shifokorlik punkti, 4 ta oilaviy poliklinika, 1 ta ko'p tarmoqli markaziy poliklinika xodimlari tomonidan profilaktik tadbirlarni faollashtirish va aholining bolalar saratoni haqida xabardorligini oshirish belgilanib, amalga oshirilmoqda. Ayni vaqtda jami bo'lib 648 ta onkologik kasalliklar "D" nazoratiga olingan bo'lib, ulardan 492 nafari ayollardir, aniqlangan onkologik kasalliklardan 13 nafari bolalar, ulardan 4 nafarida leykoz kasalligi aniqlanib "D" nazoratga olingan.

Joriy yilning 9 oyi davomida 3-18 yoshli bolalar orasida onkogematologik kasalliklarni erta aniqlash bo'yicha 45875 nafar bola ommaviy skriningdan o'tkazilishi natijasida 4 nafar bolada o'tkir leykoz aniqlanib nazoratga olindi va zarur tavsiyalar berilib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-2030 yillarda bolalar saratoniga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-186-sonli qarorlarida aholi salomatligini ta'minlash sohasida belgilangan vazifalarni, shuningdek, onkologik va onkogematologik kasalliklarga chalingan bolalarni profilaktika qilish, tashxislash, davolash va rehabilitatsiya qilish tizimini tubdan takomillashtirishga, ularning hayot sifatini yaxshilashga, kasalliklarni erta aniqlash, kompleks terapiya qilish va xalqaro standartlarga muvofiq uzoq muddatli kuzatuv olib borish imkonini beradigan qulay, yuqori texnologik va innovatsion tibbiy infratuzilmani yaratishga, pediatriya xizmati hamda bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi xizmatining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirilgan global va milliy strategik tashabbuslarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston ekologik partiyasining tuman Kengashidagi deputatlik guruhi tomonidan o'rganishlarni inobatga olib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga binoan xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, o'n beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-2030 yillarda bolalar saratoniga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-186-sonli qarori ijrosi yuzasidan Kattaqo'rg'on tumani Tibbiyot birlashmasi boshlig'i V.Xudayqulovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2025-2030-yillar Kattaqo'rg'on tumanida bolalar saratoniga qarshi kurashish yillari deb belgilansin va asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblansin:

- bolalar saratonini erta bosqichlarda aniqlash holatlari ulushini 65 foizgacha oshirish;

- onkologik va onkogematologik kasalliklarga chalingan bolalarning bir yillik yashovchanligini 34 foizdan 90 foizgacha, besh yillik yashovchanligini esa kamida 70 foizgacha oshirish;

- saraton kasalligiga chalingan bolalarni 100 foiz ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam bilan qamrab olish;

- onkogematologik kasalliklarga tashxis qo'yish muddatlarini 4 kungacha va onkologik kasalliklarga tashxis qo'yish muddatlarini 14 kungacha qisqartirish;

- onkologik va onkogematologik kasalliklarni davolashni 10 kundan 20 kungacha bo'lgan muddatda boshlash;

- birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida bolalar saratoni belgilarini aniqlash uchun sharoitlar yaratish;

- kadrlar salohiyatini oshirish, ustuvor tartibda hududlardagi tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bolalar saratoniga qarshi kurashishning barcha bo'g'inlarida biznes jarayonlarni raqamlashtirish.

3. Tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari (O.Shirinov), tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig'i (V.Xudayqulov)ga:

- kasalliklarni erta bosqichda aniqlash, skrining dasturlarini mutlaqo yangi tizimda, ya'ni skriningga mas'ul markazlar rahbarlari mas'ulligida tashkil etish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-maydagi "2025-2030 yillarda bolalar saratoniga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-186-sonli qaroriga asosan tuman Tibbiyot birlashmasiga keltiriladigan tibbiy jihozlarni qabul qilish va amaliyotda unumli foydalanish hamda sifatli xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish;

- bolalar saratonini oldini olish yuzasidan aholi o'rtasida tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish;

- qaror bilan tasdiqlangan 2025-2026 yillarda bolalar saratoniga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturiga muvofiq tuman chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish;

- saraton va boshqa kasalliklarni erta bosqichlarda tashxislash imkonini beruvchi zarur uskunalar bilan jihozlangan markaziy laboratoriyalar xizmatini rivojlantirish;

- tibbiyot brigadasi xodimlarining saraton kasalliklariga shubhalarni aniqlash uchun so'rovnoma, tibbiy ko'rik va birlamchi skrining o'tkazish bo'yicha malakasini oshirish vazifalari topshirilsin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (D.Mirzaxonova) har oyda bir marta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tibbiyotni isloh qilishga doir farmon va qarorlari ijrosi bo'yicha soha rahbarlarining hisobotlarini doimiy komissiya yig'ilishlarida eshitib borsin.

5. Tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Safarov), Kattaqo'rg'on kecha va bugun gazetasi tahririyati (v.v.b. J.Normamatov)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining doimiy komissiyalari (A.Xudayberdiyev, D.Mirzaxonova) hamda tuman hokimining o'rinbosarlari (M.Zavqiyev, O.Shirinov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV JAMSHID
TULKINOVICH